

**BOSHLANG'ICH SINFDA MEHR VA E'TIBOR- KELAJAK
JAMIYATINING POYDEVORI**

*G'AFFUROVA PARVINA TOSHTEMIROVNA
SAMARQAND VILOYATI SAMARQAND TUMANI
32-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISI*

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehr va e'tiborning inson hayotidagi o'rni, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun naqadar muhim ekani haqida so'z yuritiladi. Mehribonlik, hurmat, do'stlik va o'zaro yordam kabi insoniy fazilatlar yoshligidan shakllanadi. Shuning uchun ham maktabning ilk bosqichlarida bolalarga mehr bilan yondashish, ularning his-tuyg'ulariga e'tiborli bo'lish kelajakda mehrli va oqil jamiyatni barpo etishga xizmat qiladi. Maqolada o'qituvchilarining mehrli muomalasi, ota-onalar bilan hamkorlik, bolalarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Bu orqali yosh avlodda mehr-oqibatli, hurmatli, bag'rikeng inson sifatida kamol topishga zamin yaratiladi.

Kalit so'zlar: mehr, e'tibor, boshlang'ich sinf, o'quvchi, tarbiya, o'qituvchi, insoniy fazilatlar, jamiyat, hamkorlik, ota-onsa, ijtimoiy tarbiya, mакtab muhiti, bolalar tarbiyasi.

CARE AND ATTENTION IN PRIMARY SCHOOL – THE FOUNDATION OF FUTURE SOCIETY

Abstract: This article discusses the importance of care and attention in human life, especially for primary school students. Human values such as kindness, respect, friendship, and mutual assistance begin to take shape from early childhood. Therefore, showing care and being attentive to children's emotions during the early stages of schooling contributes to the development of a compassionate and wise society in the future. The article explores the significance of teachers' kind attitudes, collaboration with parents, and methods for fostering positive qualities in children. Through these efforts, a foundation is laid for nurturing a young generation that is compassionate, respectful, and tolerant.

Keywords: care, attention, primary grade, student, upbringing, teacher, human values, society, cooperation, parents, social education, school environment, child development.

**BOSHLANG'ICH SINFDA MEHR VA E'TIBOR- KELAJAK
JAMIYATINING POYDEVORI**

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunning yangilanishi ta’limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida bolalik davri hal qiluvchi bosqich sanaladi. Ayniqsa, maktabga qadam qo‘yan ilk yillari – boshlang‘ich sinf davri – bola dunyoqarashi, fe'l-atvori va ijtimoiy munosabatlarining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Shu bois, bu davrda bolaga ko‘rsatilgan mehr va berilgan e’tibor kelajakda uning jamiyatga munosabatini, hayotga bo‘lgan qarashini belgilaydi. Mehr va e’tibor bolalarda ijobiy insoniy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo‘lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladи. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliyligiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog‘liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutufakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o‘rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo‘ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir.

Tarixdan ko‘pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” A. Avloniyning ushbu so‘zlaridan ham tarbiya naqadar muhum ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining predmeti bo‘lajak o‘qituvchi tarbiyachilarga kelajak avlodni ma’naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo‘llari hamda bilim, ko‘nikma va malaka hosil qilish haqida babs yuritadi. Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining o‘rganish obyektini esa ta’lim muassalaridagi uzluksiz ta’lim –tarbiya jarayoni tashkil etadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faoliyoti shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma’naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo‘lib, insonning jamiyatda yashashini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo‘lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, aynipaytda bu o‘qituvchilarga katta mas’uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o‘qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog‘i lozim. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma’naviy, ma’rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Qadimgi faylasuflar-u donishmandlar axloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Asrlar davomida axloq-odob mavzuida qanchadanqancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasihatnomalar, ibratli hikmatu rivoyatlar yaratilgan. Xalq og‘zaki ijodi xazinalarida axloq-odobga doir bebaho fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab-hisobiga, ta’riflab-ta’rifiga yetib bo‘lmaydi. Muqaddas Qur’oni Karimda va payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarida insoniy axloqodobning barcha qirralari o‘z ifodasini topgan.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo‘lgan munosabatini yuqori pog‘onaga ko‘tarishdir. Imon va insof, so‘z va ish birligi, insonparvarlik – yangi ko‘rilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo‘lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas’uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho‘rocha axloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy axloqodob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo‘lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o‘quvchilarning jamiyatga bo‘lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri - ongli intizom bo‘lishidir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarini hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma’naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog‘langandir. Ongli intizom egasi bo‘lgan kishi o‘z axloqiy burchini to‘g‘ri anglaydi, o‘z xatti harakatlariga baho beradi, noto‘g‘ri xatti-harakatni qoralaydi.

Intizomli kishi o‘z xulq-atvoriga to‘g‘ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas’uliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy “Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar” deb ta’kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga,

fikrimizga ta'sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqlol istiqbolini rivojlantirish, avvalo komil insonlarga bog'liq. Komil inson O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o'z e'tiqodi, g'ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. Komil insonni shakllantirishda mактабда, oilada, sog'lom ma'naviy muhit barqaror bo'lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog'lom muhit natijasidagina axlokqy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o'z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o'zgalarga foya keltirish, sadoqat, samimiylit kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo'lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o'zaro mehr-muhabbati ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Kishi o'z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko'p intilsa, shunchalik o'z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an'analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo'qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur axloqi husniya - yaxshi xulqlar egasi bo'lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo'l qo'yagan, balki yetti o'lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma'naviyati saltanatida o'z o'rinaliga ega bo'lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go'zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. "O'g'lliarim! Millatning ulug' martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir.

Zaiflarni qo'riqlang, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin".

Ismoil Al-Buxoriy "Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham zarari yo'qdir", – deb yozadi. O'rta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o'gitlari shunday kuchga egaki, ular o'quvchilar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishiga, katta hayot yo'liga olib chiqishga yordam qiladi, ma'naviy kuch-quvvat beradi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug' mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlardan

mustaqil O'zbekiston istiqlolini mustahkamlashda, o'quvchilarning axloqiy madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqliqdir.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoni, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rildigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlataladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarish.i va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, mакtab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Barchamizga ma'lumki, ma'naviy-ahloqiy rivojlanish shaxsning butun hayoti davomida yuz beradi. Ma'naviyat shunday jarayonki, unda dastlab vujudga kelgan shakllar keyingi bosqichlarda boyitib va to'ldirib boriladi. Ma'naviy-ahloqiy rivojlanish shaxs rivojining senzitiv davrlarida, ayniqsa, faol yuz beradi. Bunday hol shaxsning o'z hayotidagi muayyan davrda yuksak darajadagi ma'naviy, ahloqiy, estetik va bilish ehtiyojlari bilan bog'langan bo'ladi. O'smirlik davrida shaxs o'zining ma'naviy-ahloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarni qo'yadi. Bunga mazkur jarayonning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shartsharoitlarning muvofiqligi katta ta'sir o'tkazadi.

Shaxs taraqqiyotining har bir davri psixik rivojlanishning o'ziga xos sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ko'pchilik psixik xususiyatlarni birgalikda shaxsning rivojlanishidagi vaziyatlar majmuasi bilan bog'liq bo'lib, ular jumlasiga shaxsning turmush tarzi, ijtimoiy shart-sharoitlari, tarbiyasi va faoliyati xususiyatlari, jinsiy, tipologik va individual xususiyatlarni kiritish mumkin. Insonning, jumladan o'smirning ijtimoiy mavqeyi (uning o'quv-tarbiya muassasadagi, oiladagi o'rni) muloqot shakllari va faoliyat turlari bilan belgilanadi.

Yaponiya - kun chiqar mamlakat aholisi farzandlarining tarbiyasiga o'ta jiddiy qarashadi. Bu erda har bir yoshga nisbatan ma'lum bir munosabatda bo'linadi va ayri tarbiya usullari qo'llaniladi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko'ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin. Yaponiyaliklar 5

yoshgacha bo‘lgan kichkintoyga qirodek muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o‘ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog‘chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to‘ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o‘z farzandlarini o‘yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi.

Amerika Qo‘shma Shtatlaridagi erkinlik bola tarbiyasida ham o‘z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 yoshlarida o‘yinchoqlarning barxa turi bilan tanishishadi, ko‘pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalarini bir marotaba 22 o‘ynalgan o‘yinchoqlar bilan to‘lib-toshadi. Ikkinchisi tomondan, go‘dakligidanoq amerikalik bolakaylar “Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqlisan, eng qobiliyatlisan”, degan so‘zlarni har kuni eshitgan holda o‘sishadi. Maqsad - mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: “Yana bir marotaba harakat qilib ko‘r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo‘rsan!” deya qo‘llab quvvatlanadi.

Albatta, bunday yondashuv kelgusida o‘zining mevasini beradi. Shvesiyada bolalarga shakllangan shaxs sifatida qarashadi. Ularning ham o‘z huquqlari va majburiyatlarini bor. Shuningdek, shvedlardagi bag‘rikenglik, o‘zgaga, uning qarashlariga, madaniyati, dini, irqiga nisbatan hurmatda va sabrli bo‘lish, agarda insonning biror-bir jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo‘lsa, unga tengqur sifatida qarash bolalikdanoq yosh avlod ongiga singdiriladi. 8-sinfdan boshlab o‘quvchilarga “Bolalar haqida” degan fan o‘tiladi. Ular oila qurish, homiladorlik, undan saqlanish yo‘llari, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, bola tarbiyasi va balog‘at yoshida o‘smirlar bilishi zarur bo‘lgan barcha ma’lumotlarga ega bo‘ladilar. “Save the children” deb ataluvchi Amerikadagi tashkilot har yili dunyo mamlakatlarining qaysi birida onalar va bolalar yaxshi yashashlarining ro‘yxatidan iborat Mothers Index (Onalar indeksi)ni tuzib chiqadi. Unda Shvesiya deyarli har yili birinchi o‘rinni egallaydi. Chaqaloq dunyoga kelgach, yosh shved onalar davlat tomonidan har tomonlama qo‘llab quvvatlanadi.

Boshlang‘ich sinflarda yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o‘quvchilarning motivlari sohasini o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta’lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shu munosabat bilan ta’lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o‘quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada

sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Avvalo, ta’limda o‘quvchilar maqomini yangilash, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug‘iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya’ni o‘quvchining ta’lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog‘liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya’ni o‘quvchini o‘quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug‘, qabila, elat, halq, millat), ijtimoiy subektlar va boshqalar o‘ziga hos qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo‘lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli 36 holatlarda namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo‘ladiki, u o‘sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o‘taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko‘rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo‘llaydilar.

U yoki bu qadriyatning ahamiyatini aniqlashda ana shunday tizimlar mavjud ekanligini unutmaslik, uning biror davr, ijtimoiy birlik, soha, jarayon va boshqalar uchun qanday mavqega ega ekanligini nazardan qochirmaslik lozim.

Qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari. Bir qarashda qadriyatlarning shakllari son-sanoqsiz va nihoyatda tartibsizga o‘hshab ko‘rinadi. Aslida esa bashariyat, olam, tabiat va jamiyatda ajabtovur uyg‘unlik mavjud. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda ana shunday uyunklikda, qonuniy bog‘lanishda, umumiy aloqadorlikdadir. Bunday holatda ularning klassifikaciyasida tabiat va jamiyatdagi narsa, voqeа, hodisa, jarayonlar muayyan ko‘lamda, qadriyat shakllari esa ular bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf — bu bolalikning eng muhim, eng nozik va ta’sirchan bosqichi bo‘lib, aynan shu davrda inson shaxsiyati, axloqiy qiyofasi va hayotga munosabati shakllana boshlaydi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, maktabning ilk yillarida bolalarga nisbatan ko‘rsatiladigan mehr va e’tibor ularning butun hayoti, jamiyatdagi o‘rni va kelajakdagi faoliyati uchun asos yaratadi. Chunki bola o‘zini qanday his qilsa, qanday muhitda voyaga yetsa, keyinchalik aynan shu holatlar uning boshqalarga bo‘lgan munosabatida, hayotiy qarorlarida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchining mehrli, sabrli va e’tiborli bo‘lishi bolani faqat bilim bilan emas, balki ruhiy jihatdan ham boyitadi. Bu esa o‘z navbatida, ijtimoiy mas’uliyatni his qiladigan, boshqalarni tushunadigan, muammolarga befarq bo‘lmagan, hamjihatlikka intiluvchi yosh avlodni shakllantiradi. Shunday sharoitda ulg‘ayayotgan bolalar nafaqat o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadi, balki kelajakda jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo‘sadigan, mehr-oqibatga boy, barkamol insonlarga aylanadi.

Yana bir muhim jihat shundaki, boshlang‘ich sinfda berilgan tarbiya — bu nafaqat maktab muhitida, balki oilada ham mustahkamlanmog‘i zarur. Maktab va oila o‘rtasidagi uzviy hamkorlik, o‘zaro hurmat va tushunish asosida olib boriladigan tarbiya jarayoni bolalarda ijtimoiy ong, axloqiy mas’uliyat, madaniy va ma’naviy qadriyatlar singari muhim fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi.

Kelajak jamiyatining barkamolligi va mustahkamligi aynan bugungi yosh avlodning qanday tarbiya olayotganiga bevosita bog‘liq. Shu bois, bugun har bir pedagog, har bir ota-onasi o‘z zimmasidagi ma’suliyatni chuqur anglab, har bir bolaga mehr va e’tibor bilan yondashmog‘i lozim. Chunki bolalikka ekilgan mehr urug‘i — ertangi kunda sog‘lom, farovon va hamjihat jamiyat daraxti mevasiga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so‘zi. 2017 yil 23 dekabr
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
3. Ishmuxamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari (2 kitob). –T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. –T.: Tib-kitob, 2010
5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.
6. Yuldashev J.G., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: «Fan va texnologiya», 2008 y.